

Tabiat hodisalari



Tabiatda hamma narsa o'zgarib turishini bilasizmi? Masalan, issiq kunlardan keyin salqin kunlar keladi. Kuzdan keyin qish, qishdan keyin esa bahor boshlanadi.




Tabiatdagi o'zgarishlar bir kunning ichida ham bo'lishi mumkin. Masalan, siz bugun tabiatda qanday o'zgarishni ko'rdingiz?


Tabiatning insonga bog'liq bo'lmagan o'zgarishlari **tabiat hodisalari** deyiladi. Tongda quyosh chiqishi, tundan keyin kun kelishi, havo ilishi, keyin birdan sovib, yomg'ir yoki qor yog'ishi, qushlarning uchib kelishi, daraxtlarning gullashi – bularning har biri tabiat hodisalariga misol.



Qaysi hodisalar jonli tabiatga, qaysilari jonsiz tabiatga tegishli?



Xazonrezgi



Gullash




Chaqmoq



Qor



Daraxtlarning
meva tugishi



Tuxumdan polapon
ochib chiqishi



Bo'ron



Yaxmalak



Ayoz



Yomg'ir



Xazonrezgi



Tuman

**Muzlarning
ko'chishi**



**Muzlarning
erishi**



**Maysa va gullarning
unib chiqishi**



Momoqaldiroq



Kamalak

**Tabiatning
gullashi**

